

**OROL BO'YI HUDUDIDA YASHOVCHI ERTA YOSHDAGI BOLALARDA
SHIFOXONADAN TASHQARI ZOTILJAMNING KECHISHIGA TEMIR
TANQISLIGI ANEMIYASINING TA'SIRI (ADABIYOTLAR SHARHI)**

Yusupova Umida Ulug'bekovna

**Urganch davlat tibbiyot institute Pediatriya va neonatologiya kafedrasi PhD,
dotsent**

Hasanova Jumagul Ravshan qizi

**Urganch davlat tibbiyot instituti Pediatriya yo'nalishi Magistratura 1-bosqich
talabasi**

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi kunda aholining ekologik salomatligini muhofaza qilish jahon miqyosidagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Orol dengizining qurishi, undagi suvning keskin darajada kamayib ketishi natijasida, uning atrofidagi xududlarda nisbatan yomon ekologik vaziyat yuzaga keldi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST, 2023) ma'lumotlariga ko'ra, har yili dunyo bo'yicha 5 yoshgacha bo'lgan taxminan 150 million bola pnevmoniya bilan kasallanadi, ularning 740 ming nafari hayotdan ko'z yumadi. Bu yosh toifasidagi barcha o'lim holatlarining 14 foizini tashkil etadi. Ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlarda pnevmoniyaning insidensi (kasallanish chastotasi) yuqori bo'lib, har 1000 bolaga 40–60 holat to'g'ri keladi.

Ishning maqsadi: Xorazm viloyatida yashovchi bolalarda temir tanqslilik anemiya kasalligi fonida o'tkir zotiljam bo'lgan bolalarda kasallikni kasallikni kechishi xususiyatlarini nashrlar tahlil qilish asosida o'rganish.

Tadqiqot natijalari: Orolbo'yi hududida olib borilgan ilmiy kuzatuvlarga ko'ra (Urganch Tibbiyot Akademiyasi, 2022), 1 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalarda temir tanqisligi anemiyasi (TTA) 65–80% gacha uchraydi, bu esa O'zbekistonning boshqa hududlaridagi ko'rsatkichdan deyarli ikki baravar yuqori. Temir tanqisligi anemiyasi bolalar organizmidagi immun javobni susaytiradi, nafas yo'llari infeksiyalariga nisbatan himoya mexanizmlarini zaiflashtiradi va pnevmoniya rivojlanishiga zamin yaratadi.

Temir etishmovchiligi fagotsitar hujayralarning faolligini kamaytiradi, limfotsitlar proliferatsiyasini to'xtatadi, oksidlovchi stress mexanizmlarini buzadi va T-limfotsitlar faolligini pasaytiradi. Natijada bola bakterial va virusli infeksiyalarga nisbatan sezuvchan bo'lib qoladi. O'zbekiston miqyosida ham so'nggi yillarda pediatrik gematologiya va infeksiyon kasalliklar bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar (A. Karimova, T. Abdurahmonov, Sh. Raximov, 2022) temir tanqisligi bo'lgan bolalarda pnevmoniya

nafaqat tez-tez takrorlanishi, balki og'irroq kechishini ham ko'rsatdi. Ushbu muammo ayniqsa Orolbo'yi zonasida dolzarb bo'lib, bu yerda ekologik yuklama, ovqatlanishdagi mikronutrient yetishmovchiligi va immunitetning pasayganligi birgalikda pnevmoniya kechishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Xulosa: sifatida aytish mumkinki, Orolbo'yi hududida yashovchi erta yoshdagi bolalarda temir tanqisligi anemiyasi zotiljamning og'ir kechishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, pediatriya amaliyotida anemiyani erta aniqlash va davolash orqali bolalarda nafas yo'llari infeksiyalarining og'ir asoratlarini kamaytirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bobomuratov, T., Yusupova, U., & Xudayberganov, M. (2022). O'zbekiston respublikasining ekologik noqulay muhitda yashovchi o'tkir zotiljam bilan og'riq bolalarda gemostaz tizimi ko'rsatkichlarining mavsumiy o'zgarishlari. *problemq i resheniya*, (01), 39-48.
2. Bobomuratov, T. A., & Yusupova, U. U. (2023). Vzaimo obuslovlennno pokazateley Gemostaza I Tyajesti Teheniya pnevmoni U Detey Iz Yujnoy Zono priaralya. *Amaliy va tibbiyot fanlari ilmiy jurnali*, 2(2), 28-34.
3. Bobomuratov, T. A., & Yusupova, U. U. (2023). Identification of clinical and laboratory changes in acute pneumonia in young children living in an unfavorable ecological environment (in Khorezm region). *Journal of Intellectual Property and Human Rights*, 2(1), 14-20.
4. American Academy of Paediatrics. Clinical practical Guideline. Management of Hyperbilirubinemia in the Newborn Infant 35 or More Weeks of Gestation // *Pediatrics*. Vol. No.1. July 2004. P.297-316 www.aappublications.org/new (19.05.2019)
5. Bobomuratov, T. A., Yusupova, U. U., Sharipova, O. A., & Bakhronov, S. S. (2020). the influence of ecological enviroment on the homeostatic system and the level of interleukins at acute brochitis in early age children. *central asian journal of medicine*, 2020(1), 84-91.